

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

AZIMOV FARRUX KAXRAMONOVICH

**KONTEYNER TASHUVLARNI BARQAROR TASHKIL ETISHNING
TEXNIK-TEXNOLOGIK TA'MINOTI**

**05.08.01 – Mamlakat, uning mintaq, shahar va sanoat markazlarining transport tizimlari.
Transport logistikasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Azimov Farrux Kaхраmonovich

Konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishning texnik-texnologik ta‘minoti 3

Азимов Фаррух Кахрамонович

Технико-технологическое обеспечение устойчивой организации
контейнерных перевозок 21

Farrukh Azimov

Technical and technological support for the sustainable organization of
container transportation 40

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

AZIMOV FARRUX KAXRAMONOVICH

KONTEYNER TASHUVLARNI BARQAROR TASHKIL ETISHNING
TEXNIK-TEXNOLOGIK TA'MINOTI

05.08.01 – Mamlakat, uning mintaqa, shahar va sanoat markazlarining transport tizimlari.
Transport logistikasi

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T4054 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ilesaliyev Daurenbek Ixtiyarovich
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Xadjimuxametova Matluba Adilovna
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Juraboyev Kamoljon Abdumuminovich
texnika fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi PhD.15/31.08.2022.T.73.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 4-mart soat 15³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'Ichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (225 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'Ichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 19-fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil 19-fevraldagi -raqamli reyestr bayonnomasi).



J.F. Kurbanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.M. Suyunbayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

M.X. Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, t.f.n., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda, temir yo‘l transportida 3 va 5 tonnali konteynerlarning bosqichma-bosqich foydalanishdan chiqarilishi kichik hajmdagi yuklarni yetkazib berishning muqobil yechimlarini taklif qilinmasligiga olib kelganligi bois, turli transport partiyasidagi yuklarni xavfsizligi va saqlanishini ta‘minlagan holda yetkazib berishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Kichik hajmdagi yuklarni konsolidatsiyalangan jo‘natmalar (LCL – Less Container Load) orqali yetkazib berishga bo‘lgan talabning ortishi oqibatida, prognozlar bo‘yicha har yili 4,9%¹ga oshirishini va bir vaqtda to‘liq konteyner jo‘natmalarining hajmi (FCL – Full Container Load) 2,5%²ga kamayishini inobatga olgan holda, tashish samaradorligini oshirish uchun muqobil yechimlarni joriy etish dolzarb vazifa bo‘lmoqda. Shu jihatdan, transport jarayonlarini optimallashtirish va yuklarni tashish samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, logistika xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, tashishning barcha bosqichlarida xavfsizlikni ta‘minlash va transport oqimlarini muvofiqlashtirishda texnik-texnologik yechimlarni qo‘llash, harakat tarkiblarini turib qolish vaqtlarini minimallashtirish hamda logistik amallarni tezlashtirishga e‘tibor qaratilmoqda.

Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Yaponiya, Rossiya va boshqa yetakchi mamlakatlarda tashish jarayonlarining barcha bosqichlarida samaradorlikni oshirish, turli transportlarni o‘zaro muvofiqlashtirishni yaxshilash, logistika xarajatlarini kamaytirish va xavfsizlikni ta‘minlash uchun tashishlarni boshqarishni optimallashtirish, shuningdek, konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishning texnik-texnologik ta‘minotini takomillashtirishga qaratilgan intellektual tizimlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda, kichik hajmdagi yuklarni o‘rta tonnajli konteynerlarda tashishda ratsional texnologik sxemani izlash, shuningdek, logistika xarajatlarini kamaytirishda modifikatsiyalangan intermodal birlikni qo‘llashda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy ilmiy usullardan foydalanish ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishni ta‘minlash, o‘rta tonnajli konteynerlarda kichik hajmdagi yuklarni tashish tizimini takomillashtirish, modifikatsiyalangan konteyner-platformani yaratish bo‘yicha texnik-texnologik yechimlarni uning yuk ko‘tarish qobiliyatini hisobga olgan holda ishlab chiqish, konteynerlarni intermodal terminallarga biriktirish va ularni ortish-tushurish mashinalari guruhlarida orasida qayta taqsimlash modelini ishlab chiqish sohasida tizimli tahlillarni olib borish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida logistika infratuzilmalarini rivojlantirish va konteynerlarda kichik hajmdagi yuklarni tashishni takomillashtirish, transport

¹ <https://www.globenewswire.com/news-release/2023/09/18/2744547/0/en/Ocean-Freight-Forwarding-Market-Size-163486-28-Billion-by-2030-at-CAGR-of-4-9-CAGR-which-is-Booming-Strong-Growth-in-the-Globe-till-2030.html>

² <https://www.bloomberg.com/news/articles/2023-02-08/maersk-sees-global-trade-contracting-as-much-as-2-5-in-2023>

sohasining samaradorligini zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali oshirish hamda kichik hajmdagi yuklarni yetkazib berishda xarajatlarni kamaytirish, xavfsizlik va moslashuvchanlikni ta'minlashda logistik jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Barcha transport turlari bilan o'zaro bog'liq yagona transport tizimini rivojlantirish..., transport va logistika xizmatlari bozorini va infratuzilmasini rivojlantirish..., "yashil yo'llar"ni va transport tizimidagi tranzit imkoniyatlarini kengaytirish..."³ yuzasidan muhim maqsadlar belgilangan. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda muqobil yechimlar va tashish tizimlarini takomillashtirish kichik hajmdagi yuklarni tashishga ortib borayotgan talabni qondirish va temir yo'l transportidan samarali foydalanishni ta'minlash imkonini beradi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli va 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmonlari, 2019-yil 6-martdagi "Yuk va yo'lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4230-sonli, 2023-yil 10-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-sonli Qarorlari, "O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2022-2023 yillarga mo'ljallangan biznes rejasi, O'zbekiston Respublikasi va Bolgariya Respublikasi hukumatlari o'rtasida "Xalqaro kombinatsiyalashgan yuk tashishlar to'g'risida"gi 2004-yil 16-iyuldagi kelishuvda hamda ushbu faoliyat turiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energiya tejamkorlik va muqobil energiya manbaalari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashishning zamonaviy muammolari va rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, konteyner terminallarida texnologik jarayonlarni optimallashtirish va logistika xarajatlarini qisqartirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, universitetlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida, shu jumladan, Temple University (AQSh), The State University of New Jersey (AQSh), Universidad de Los Andes College of Engineering (Chili), Institute of Transportation (Tayvan), National Taiwan Ocean University (Tayvan), United States Merchant Marine Academy (AQSh), Queensland University of Technology (Avstraliya), Hellas tadqiqot va

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni

texnologiyalar markazi (Gretsiya), Imperator Aleksandr I ning Peterburg davlat temir yo‘l universiteti, Butunrossiya temir yo‘l transporti ilmiy-tadqiqot institute, Rossiya transport universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Toshkent davlat transport universitetida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Transport-logistika terminallari orqali konteynerlarni tashish jarayoni bo‘yicha Y.A. Basov, M.M. Mexedov, A.L. Kuznetsov, A.N. Raxmangulov, V.S. Lubensova, P.S. Yakovlev. J. Pascual, D. Aranda, F. Hidalgo, A. Smith, E. Karakaya, R. Gonzalez-Ramirez, N. Mittal, M. Boile, A. Baveja, S. Theofanis, Chu C.-Y., Huang W.-C. kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yurtimizda konteyner tashishlarni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish masalalarini o‘rganish bilan K.T. Xudayberganov, S.X. Jumaboyev, E.T. To‘ychiyev, M.X. Rasulov, O.S. Turdimatov, D.I. Ilesaliyev, Z.G. Adilova, S.K. Xudayberganov, Sh.R. Abduvaxitov, J.A. Shixnazarov, A.F. Ismatullayev, Z.V. Ergasheva va boshqa bir qator olimlar shug‘ullangan.

Shu bilan birga, logistika zanjirida o‘rta tonnajli konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishning texnik-texnologik ta‘minoti yetarli darajada o‘rganilmagan. O‘rta tonnajli konteynerlarni konteyner-platformalarga joylashtirish usullarining majmuaviy matematik modellari va usullari ishlab chiqilmagan. Shuningdek, hozirgi kunga qadar o‘rta tonnajli konteynerlarning yuk terminallarini texnologik jarayoniga ta‘siri bo‘yicha ilmiy takliflar yetarli emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan IL-1145/45-sonli “Intermodal tashishlarda keng nomenklaturadagi yuklarni yangi texnik va texnologik yechimlar yordamida tashish muammosini hal qilish, shuningdek, innovatsion konteyner-platformani yaratish” (2018-2020-y.), 005/23-sonli “Toshkent metrosini loyihalashtirish, rejalashtirish, boshqarish va o‘qitish vositasi sifatida raqamli nusxasini yaratish” (2023-2024-y.) hamda 013/23-sonli “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ixtisoslashgan izotermik konteynerlarda tashish texnologiyasini joriy etish” (2023-2024-y.) loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishning texnik-texnologik ta‘minotini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishni ta‘minlash sohasini tizimli tahlil qilish va ishlab chiqarish tajribasini ko‘rib chiqish;

kichik hajmdagi yuklarni o‘rta tonnajli konteynerlarda tashish tizimi va intermodal terminallarining texnik-texnologik parametrlarini aniqlash usulini takomillashtirish;

intermodal transport birligining yuk ko‘tarish qobiliyatini hisobga olgan holda, modifikatsiyalangan konteyner-platformalarga joylashtirish uchun o‘rta tonnajli konteynerlarni tanlash usulini ishlab chiqish;

kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashish uchun ratsional texnologik sxemani izlash dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;

o'rta tonnajli konteynerlarni intermodal terminallarga biriktirishning matematik modeli va ularda kichik hajmdagi yuklarni tashishni tashkil etishda yangicha yondashuvni transport masalasini modifikatsiya qilish asosida ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'rta tonnajli konteynerlarda yuklarni tashishni ta'minlaydigan konteyner tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda samarali va barqaror tashishni ta'minlaydigan konteyner tizimining texnik va texnologik parametrlari olingan.

Tadqiqot usullari o'rta qiymatlar dinamikasi usuli, ombor tizimlari, transport logistikasi, barqarorlik va transport oqimlarini boshqarish nazariyalarini qo'llash orqali yuklarni konteynerlarda tashishni tashkil etishning mavjud usullarini umumlashtirishga asoslangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashish tizimi yuklashning gabarit o'lchamlaridan oshmaydigan donali yuklar uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan, modifikatsiyalangan konteyner-platformani yaratish bo'yicha texnik-texnologik yechimlarni ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

modifikatsiyalangan konteyner-platformada o'rta tonnajli konteynerlarni tanlash usuli intermodal transport birligining yuk ko'tarish qobiliyati va brutto og'irlik bo'yicha nomutanosiblikni minimallashtirishni inobatga olgan holda, parametrlarni cheklash uchun binar o'zgaruvchilarni qo'llash orqali ishlab chiqilgan;

o'rta tonnajli konteynerlarni intermodal terminallarga biriktirishning matematik modeli kichik hajmdagi yuklarni tashishda mavjud logistika tizimiga integratsiya qilish imkoniyatini hisobga olgan holda, modifikatsiyalangan transport masalasi asosida ishlab chiqilgan;

o'rta tonnajli konteynerlarda kichik hajmdagi yuklarni tashishni tashkil etishning yangicha yondashuvi konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishni texnik-texnologik ta'minlash uchun terminal tizimining o'rtacha uzluksiz ishlash vaqtini aniqlash orqali ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashishning ratsional texnologik sxemasini izlash uchun algoritm va dasturiy ta'minot ko'rinishidagi instrumental vosita ishlab chiqilgan;

turli yuklash-tushirish mashinalari bilan ishlov berish imkoniyatiga ega, o'rta tonnajli konteynerlarda kichik hajmdagi yuklarni yetkazib berish uchun modifikatsiyalangan konteyner-platformani yaratish bo'yicha texnik-texnologik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy ilmiy usullarga asoslangan matematik modellashtirish va tahlilni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvdan

foydalanilganligi bilan izohlanadi. Amaliy sinovlar bilan tasdiqlangan tajribaviy ma'lumotlarning qo'llanilishi hisob-kitoblarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Taklif etilgan model va usullarni tekshirish statistik ma'lumotlardan foydalangan holda o'tkazilgan, bu esa olingan natijalarning yuqori ishonchliligini ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati logistika jarayonlarini optimallashtirishning zamonaviy texnologiyalari va usullarini qo'llagan holda o'rta tonnajli konteyner tashishlarni tashkil etishning nazariy asoslari va yondashuvlarning rivojlantirilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida transport oqimlarini boshqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni minimallashtirish va kichik hajmdagi yuklarni yetkazib berish vaqtini qisqartirish imkonini beruvchi yangi matematik modellar va algoritmlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotning qo'shgan hissasi transport logistikasining ilmiy apparatini kengaytirish va tashishlarning barqarorligi va ishonchliligini oshirish uchun texnik-texnologik yechimlarni asoslashdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularni konteyner tashishlarni tashkil etishni optimallashtirish uchun transport sohasida bevosita qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan texnologiyalar va vositalar transport logistikasi korxonalarida infratuzilmadan foydalanish samaradorligini oshirish, harakat tarkibini turib qolish vaqtini qisqartirish, yo'qotishlar xavfini minimallashtirish va transport jarayonlarining ekologik barqarorligini yaxshilash uchun joriy etilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishning texnik-texnologik ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

modifikatsiyalangan konteyner-platformada o'rta tonnajli konteynerlarni tanlash usuli, o'rta tonnajli konteynerlarni intermodal terminallarga biriktirishning matematik modeli, kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashishning ratsional texnologik sxemasini izlash uchun algoritm va dasturiy ta'minot ko'rinishidagi instrumental vositalar "O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Logistika va marketing" departamenti tasarrufidagi konteyner terminallarida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 31-oktabrdagi 4/10472-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, intermodal transport birligidan foydalanish orqali konteynerlarni qayta ishlash vaqtini 6 soatga qisqartirish, fitting platformasining sig'imidan foydalanish koeffitsiyentini 15% gacha oshirish, konteynerlarning turib qolish vaqtini 12% ga qisqartirish hamda qayta ishlash qobiliyati va qoldiqlarni hisobga olgan holda terminallarda konteynerlarni samarali taqsimlashning imkoni yaratilgan. Olingan natijalarni amaliyotga joriy etishdan kutilayotgan iqtisodiy samara 460,4 mln. so'mni tashkil etadi;

kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashish tizimi, o'rta tonnajli konteynerlarda kichik hajmdagi yuklarni tashishni tashkil etishning yangicha yondashuvi va modifikatsiyalangan konteyner-platformani yaratish bo'yicha texnik-texnologik tavsiyalar "O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Tashishlarni

tashkil etish” departamentining “Yuk va tijorat ishlari boshqarmasi”da joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 31-oktabrdagi 4/10472-sonli ma’lumotnomasi). Natijada logistik xarajatlarni 10% gacha kamaytirish orqali kichik hajmdagi yuklarni o‘rta tonnajli konteynerlarda tashish tizimining samaradorligi isbotlangan hamda tizimning turli xavflarga chidamliligini baholash, uning optimal ishlash parametrlarini aniqlash va samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini bergan. Amaliyotga joriy etishdan kutilayotgan iqtisodiy samara 320,6 mln. so‘mni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro (Scopus bazasida) va 2 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan va aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan 2 ta xorijiy va 11 ta respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari portalida ro‘yxatdan o‘tgan 1 ta dasturiy ta’minot uchun mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matnining asosiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida bajarilgan ishning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, dissertatsiya ishining O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan ma’lumotlarning ishonchligi, shuningdek, ularning nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan. Ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar, shu bilan birga, dissertatsiya ishining tuzilmasi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Konteyner tashish bozorining zamonaviy holati va istiqbollari**” deb nomlangan birinchi bobida transport xizmatlari bozorining, xususan, konteyner tashish sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari o‘rganilgan. Kichik hajmdagi yuklarni o‘rta tonnajli konteynerlarda yetkazib berishda muammolar kelib chiqishining asosiy sabablari aniqlangan. Konteyner tashishlarni barqaror tashkil etishni ta’minlash bo‘yicha amaliy tajriba tadqiq etilgan, logistikadagi asosiy parametrlar bo‘yicha kichik hajmdagi yuklarni yetkazib berish usullarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, xorij tajribasi tahlil qilinib, olimlarning kichik hajmdagi yuklarni yetkazib berishni tashkil etish masalalari

bo'yicha olib borgan tadqiqotlari natijalari umumlashtirilgan. Bundan tashqari, konteynerlarni transport-logistika terminallari orqali tashish jarayonlari o'rganilgan.

Kichik partiyali yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda yetkazib berishdagi tub muammolarni aniqlash uchun texnik va infratuzilmaviy cheklovlar, logistika jarayonlarining standartlashtirilmaganligi hamda intermodal logistikaning yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi bilan bog'liq asosiy to'siqlar tahlil qilingan. Kichik biznes vakillari katta bo'lmagan hajmdagi jo'natmalar bilan bog'liq muammolarga duch kelganligi, bu esa konteynerlarni to'liq yuklashni qiyinlashtirganligi, xarajatlarni oshirganligi va samaradorlikni pasaytirganligi aniqlangan.


Terma konteynerlarni tuzishda uzoq vaqt kutish, bojxona jarayonlarining murakkabligi va yetkazib berishning qo'shimcha bosqichlari tashish muddatlari va narxini sezilarli darajada oshirganligi aniqlangan. O'tkazilgan tahlillar asosida tezkor va qulay logistika yechimlarini joriy etish va kichik biznes ehtiyojlariga mos keladigan infratuzilmani rivojlantirish zarurligi xulosa qilingan. Yuklarni qayta ishlashni jadallashtirish va tashish zanjiri ishtirokchilari orasidagi o'zaro ta'sirni yaxshilash uchun avtomatlashtirish texnologiyalarini joriy etish ham muhim jihat hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda yetkazib berish bilan bog'liq muammolarning asosiy sabablarini aniqlash

Kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashish samaradorligini asoslash uchun tashish haqlarining tahlili o'tkazilgan. Barcha ko'rib chiqilgan masofalarda 10 futli konteynerlarda tashish eng tejamkor ekanligi aniqlangan. Bu masofani ortishi bilan tashish narxining bir tonna-kilometrka kamayishi bilan tasdiqlangan (2-rasm).

Turli tashish texnologiyalarini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, avtomobil transporti qisqa masofalarga raqobatbardosh, ammo masofa ortishi bilan uning narxi sezilarli darajada oshgan, bu esa uni uzoq masofalarga tashishda samarasiz qiladi. Ayniqsa, uzoq masofada terma yuklarni 20 futli konteynerlarda va mayda jo'natmalarni yopiq vagonlarda tashish ham tejamkorlik bo'yicha 10 futli konteynerlarda tashishdan ustuvorligini yo'qotgan. Tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, o'rta tonnajli konteynerlardan foydalanish yuklashni optimallashtirish va tashishning umumiy xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.




2-rasm. Bir tonna-kilometr ga yuklarni tashish narxi

Dissertatsiyaning “**Kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashish tizimini ishlab chiqish**” deb nomlangan ikkinchi bobida o'rta tonnajli konteynerlarda kichik hajmdagi yuklarni tashish tizimini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etilgan. Yuklarni tashishning ratsional sxemasini izlash algoritmini tuzish amalga oshirilgan, shuningdek, konteyner-platformasida o'rta tonnajli konteynerlarni tanlash usuli ishlab chiqilgan. Matematik model asosida fitting platformaning yuk ko'tarish qobiliyati cheklanishini hisobga olgan holda, platformada konteynerlar brutto massalarining ruxsat etilgan va etilmagan kombinatsiyalarining parametrik qatori shakllantirilgan. Bundan tashqari, o'rta tonnajli konteynerlarni yuk terminallariga biriktirish xususiyatlari asoslangan.

Dissertatsiya doirasida o'rta tonnajli konteynerlarda kichik hajmdagi yuklarni tashishning ratsional sxemasini izlash algoritmi ishlab chiqilgan (3-rasm).

Konteynerlarni joylashtirishda platforma yuk ko'tarish qobiliyatining muvofiqligini tekshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Taklif etilgan algoritmi qo'llash tashish jarayonini optimallashtirish, xarajatlarni minimallashtirish, yuklash samaradorligini oshirish va texnik talablarga javob berishni ta'minlaydi, bu esa kichik hajmdagi yuklarni yetkazib berish logistikasini yaxshilashga imkon bergan.

Dissertatsiya doirasida konteyner-platformada o'rta tonnajli konteynerlarni tanlash usuli ularning brutto massasi, hajmiy tavsiflari va platformaning turg'unligini hisobga olgan holda joylashtirishni optimallashtirishga qaratilgan.



3-rasm. O‘rta tonnajli konteynerlarda kichik hajmdagi yuklarni tashishning ratsional sxemasini izlash algoritmi

Bo‘sh va yuklangan konteynerlarni o‘z ichiga olgan 5 va 10 fut uzunlikdagi konteynerlarni joylashtirish sxemalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Ishlab chiqilgan usul tarkibning barqarorligini ta‘minlash uchun platformaning yuk ko‘tarish qobiliyati, hajmiy cheklanishlar va og‘irlikning bir tekis taqsimlanishini hisobga oluvchi matematik modelni o‘z ichiga olgan:

- o‘rta tonnajli konteynerlarning unumli massasini maksimallashtirish:

$$\max \sum_{i=1}^m m_i \cdot x_i; \quad (1)$$

- barqarorlik uchun og‘irlik nomutanosibligini minimallashtirish:

$$\min \left| \sum_{i \in \text{chap.tomon}} m_i \cdot x_i - \sum_{i \in \text{o'ng.tomon}} m_i \cdot x_i \right| \quad (2)$$

Konteyner-platformaning brutto og‘irligi bo‘yicha cheklov:

$$\sum_{i=1}^n m_i \cdot x_i \leq Q_{\max} \quad (3)$$

Konteyner-platformaning hajmi bo‘yicha cheklov:

$$\sum_{i=1}^n v_i \cdot x_i \leq V_{\max} \quad (4)$$

Konteyner-platformalardan foydalanishni optimallashtirish yo‘naltirilgan saralash usulini qo‘llash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda o‘rta tonnajli konteynerlarning foydali massasini maksimallashtirish amalga oshiriladi, bunda, massa va hajm bo‘yicha ruxsat etilgan cheklovlar doirasida platformaning eng yuqori yuk ko‘tarish qobiliyatini ta‘minlaydigan konteynerlar tanlanadi. Ikkinchi bosqichda turg‘unlikni ta‘minlash uchun platforma tomonlari orasidagi massalar farqini minimallashtirish amalga oshiriladi. Bunda konteynerlarning shunday taqsimlanishi tanlanadiki, unda platformaning chap va o‘ng tomonlarining umumiy og‘irligi o‘rtasidagi farq minimallashtiriladi. Yukning bir tekis taqsimlanishi platforma barqarorligining asosiy omili hisoblanadi. Konteynerlarning oldindan aniqlangan ruxsat etilgan va etilmagan kombinatsiyalari konteynerlarni notekis yuklanish xavfini minimallashtirishga imkon beradi. Har bir saralash bosqichida platforma maydoni va yuk ko‘tarish qobiliyatidan eng samarali foydalanadigan, shuningdek, tashish jarayonida barqarorlikni ta‘minlaydigan variantlar baholanadi.

O‘rta tonnajli konteynerlarni konteyner terminallariga birlashtirish xususiyatlari ularning qayta ishlash qobiliyati va poyezdni jo‘natish vaqtida qoldiq konteynerlarni hisobga olgan holda tadqiq etilgan. Konteynerlarni terminallar va iste‘molchilar o‘rtasida taqsimlash jarayonini optimallashtirish imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan. Modelning o‘ziga xos xususiyati – masofa, konteynerlar soni va talabga bog‘liq bo‘lgan tariflardan foydalanish, shuningdek, konteynerlarning kamomadi yoki ortiqchasini bartaraf etish uchun terminallarda qoldiq konteynerlar hisobga olingan (4-rasm).

Masalaning modeli quyidagi funksiya bilan tavsiflangan:

$$\min \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n c_{ij} (x'_{ij} + x''_{ij}), \quad (5)$$

bunda $\sum_{i=1}^m$ – barcha konteyner terminallari bo‘yicha yig‘indini bildiradi; $\sum_{j=1}^n$ – barcha iste‘molchi bo‘yicha yig‘indini bildiradi; c_{ij} – i konteyner terminalidan j iste‘molchiga tovar birligini tashish tarifini ifodalaydi. Turli stansiya-iste‘molchi juftliklari uchun bu tariflar turlicha bo‘lishi mumkin; x'_{ij} – i konteyner terminalidan j iste‘molchiga reja bo‘yicha jo‘natiladigan tovarlar hajmini ifodalaydi; x''_{ij} – i konteyner terminalidan j iste‘molchiga rejadan tashqari jo‘natiladigan tovarlar hajmini ifodalaydi.

Bunda quyidagi cheklovlar mavjud:

- konteyner terminallarida kutilayotgan qoldiqlar to‘liq olib ketilishi zarur:

$$\sum_j x'_{ij} = Q_i, \quad i = \overline{1, m}; \quad (6)$$

- i -konteyner terminalidan yetkazib beriladigan kichik hajmdagi yuklar miqdori uning qayta ishlash qobiliyatidan oshmasligi kerak:


$$\sum_j x''_{ij} \leq a_i - Q_i, \quad i = \overline{1, m}; \quad (7)$$

- iste'molchilarning buyurtmalari to‘liq qondirilishi kerak:

$$\sum_{i=1}^m (x'_{ij} + x''_{ij}) = b_j, \quad j = \overline{1, n}; \quad (8)$$

- manfiy bo‘lmaslik sharti:

$$x'_{ij} \geq 0, \quad x''_{ij} \geq 0, \quad i = 1, \dots, m, \quad j = 1, \dots, n. \quad (9)$$



4-rasm. Konteyner terminallarining qayta ishlash qobiliyati, qoldiq konteynerlar va mijozlarning ehtiyoji

Masalani hal etish uchun terminallarning qayta ishlash qobiliyati va mavhum iste'molchini hisobga olgan holda modifikatsiyalangan klassik transport masalalari usullari qo'llanilgan, bu optimal yetkazib berish hajmini aniqlash va transport xarajatlarini minimallashtirish imkonini bergan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, terminallarda qoldiq konteynerlarni hisobga olish va konteyner oqimlarini qayta taqsimlash logistika tizimining samaradorligini oshirishga va resurslardan to'liq foydalanmaslikni bartaraf etishga yordam bergan.

Dissertatsiyaning **“Konteyner maydonining parametrlari va kichik hajmdagi yuklarni ko'tarish-transport uskunalari guruhlarida orasidagi taqsimlash jarayonlarini ishlab chiqish va optimallashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida konteyner maydonining tuzilmaviy-parametrik tavsifini tadqiq qilish natijalari, konteyner maydonining parametrlarini hisoblash uchun matematik modelni ishlab chiqish, shuningdek, konteyner terminallari va ularning tarkibiy elementlarining texnik-texnologik parametrlarini aniqlash va hisoblash usullari keltirilgan. Bundan tashqari, ko'tarib-tashish uskunalari guruhlarida kichik hajmdagi yuklarni taqsimlash yondashuvi ishlab chiqilgan bo'lib, bu uskunalardan

foydalanish samaradorligini oshirish va logistik jarayonlarni optimallashtirish imkonini bergan.

Dissertatsiyada O'zbekistondagi yuk tashishni konteynerlashtirish darajasining yetarli emasligi, konteynerlar va logistika obyektlarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan muammolar tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida bo'sh, yuklangan konteynerlar va ta'mirlashni kutayotgan konteynerlarni saqlash zonalarini o'z ichiga olgan murakkab texnik tizim sifatida qaraladigan konteyner maydonining tuzilmaviy-parametrik tavsifi amalga oshirilgan. Konteyner terminalining asosiy va hisoblanadigan parametrlari, ya'ni saqlash uchastkalarining uzunligi va kengligi, terminal maydoni, sig'imi, qayta ishlash qobiliyati, shuningdek, terminal ishini tashkil etishga ta'sir etuvchi vaqt parametrlari aniqlangan. Konteyner terminallariga xizmat ko'rsatuvchi ortish-tushirish mashinalarining parametrlari qiymatlarining qiyosiy tahlili o'tkazilgan. Natijada turli konteynerlarni qayta ishlash uchun optimal yechimlarni tanlash asoslangan. Parametrlarning aniqlashtirilgan hisob qiymatlari konteyner terminallaridan foydalanish samaradorligini oshirishga va logistika xizmatlari sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Shuningdek, dissertatsiyada qayta yuklash amallarining samaradorligini oshirish maqsadida ko'tarish-transport uskunalari guruhlarida orasida kichik hajmdagi yuklarni taqsimlash jarayonini optimallashtirishga qaratilgan tadqiqot o'tkazilgan. O'rta tonnajli konteynerlarga joylashtirilgan va temir yo'l orqali tashishga mo'ljallangan yetkazib berishning bashorat qilinayotgan yillik hajmlariga asoslangan holda yuklarni qayta taqsimlashning oldindan ishlab chiqilgan rejasi asos sifatida qo'llanilgan. Tadqiqot doirasida qayta yuklash amallarining umumiy xarajatlarini minimallashtirish, uskunalarning yuklanishini muvozanatlash va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan. Uskunaning quvvati, ishlab chiqarish me'yori, yuklarga ishlov berish xarajatlari, shuningdek, xarajatlarni minimallashtirish, foydani maksimallashtirish, ish vaqtini qisqartirish va maksimal qayta yuklash vaqtini minimallashtirishni o'z ichiga olgan maqsadli funksiyalar modelning asosiy parametrlari bo'lib xizmat qilgan:

$$R_1 = \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n c_{ij} \cdot x_{ij} \rightarrow \min. \quad (10)$$

Maqsadlarga erishish uchun resurslar cheklovlari, qayta yuklash rejasini bajarish va o'zgaruvchilarning nomanfiylikini o'z ichiga olgan cheklovlar tizimi shakllantirilgan:

- uskunalar har bir guruhi tomonidan bajarilgan ishlarning umumiy hajmi ularning quvvatidan oshmasligini ta'minlovchi uskunalar resurslariga kiritilgan cheklovlar:

$$\sum_{j=1}^n a_{ij} \cdot x_{ij} \leq b_i; \quad (11)$$

- har bir yuk turi uchun qayta yuklash ishlari rejasini bajarish sharti:

$$\sum_{i=1}^m x_{ij} \leq x_i^*; \quad (12)$$

- ortiqcha yuklanish hajmlari salbiy bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatuvchi salbiy bo'lmagan shartlar:

$$x_{ij} \geq 0. \quad (13)$$

Qiymat funksiyasini minimallashtirish ushbu cheklovlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak, bu esa resurslarni iqtisodiy jihatdan samarali taqsimlanishiga erishish uchun ortiqcha yuklamalarning optimal hajmini aniqlashga olib keladi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, uskunalar guruhlari orasida ishlarni qayta taqsimlash notekislikni bartaraf etish va unumdorlikni oshirish imkonini berdi. Ishlab chiqilgan optimallashtirish usulini joriy etish ko'tarish-transport uskunalaridan samarali foydalanish, yuklarga ishlov berish vaqtini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish imkonini bergan.

Dissertatsiyaning **“O'rta tonnajli konteynerlarni tashishda temir yo'l transporti va konteyner terminalining o'zaro hamkorligini tadqiq qilish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida temir yo'l transporti va konteyner terminalining o'zaro hamkorligida konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishning ta'minlanishi baholangan. Shuningdek, konteyner tashishuvlar barqarorligini oshirishga qaratilgan optimallashtirish vazifalari ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot doirasida konteyner terminali ishlashining agentli diskret-hodisaviy imitatsion modeli ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashish tizimining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan.

Konteyner tashuvlar barqarorligini oshirish, jumladan tizimning to'xtovsiz ishlash vaqtini ko'paytirish, tiklanish vaqtini qisqartirish va nosozliklar xavfini minimallashtirish uchun tashqi omillar va xavflarni hisobga oluvchi matematik model ishlab chiqilgan. Optimallashtirish uchun masalalarni bosqichma-bosqich yechishni nazarda tutuvchi dekompozitsiya usulidan foydalaniladi. Birinchi bosqichda nosozliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilish va bartaraf etish orqali tizimning turib qolish vaqti minimallashtiriladi. Ikkinchi bosqichda unumdorlikni optimallashtirish, shu jumladan resurslardan samarali foydalanish, konteynerlarga ishlov berish va tashish vaqtini qisqartirish, shuningdek qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvni qo'llash orqali tizim barqarorligini oshirish, logistika operatsiyalarini optimallashtirish, ish unumdorligini oshirish va to'xtab turish vaqtini minimallashtirishga erishildi.

Turib qolish vaqtini minimallashtirish:

$$\min \int_0^T (1 - u(t)) dt, \quad (14)$$

bunda $u(t)$ – tizimning t vaqt momentida nosozliksiz ishlash ehtimoli;

T – barcha tashishlarni bajarish uchun rejalashtirilgan vaqt.

Umumiy unumdorlikni maksimallashtirish:

$$\sum_{i=1}^N w_i, \quad (15)$$

bunda w_i – i -konteynerni tashishning ustuvorligi yoki tashish haqi aks ettiruvchi vazn koeffitsiyenti;

N – tashiladigan konteynerlarning umumiy soni.

O'tkazilgan hisob-kitoblar asosida nosozliksiz ishlash va vaqt bo'yicha uzilishlar ehtimolliklari dinamikasini ko'rsatuvchi grafiklar qurilgan. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tizimning birinchi daqiqalarida yuqori boshlang'ich yuklama tufayli samaradorlikning keskin pasayishi kuzatilib, undan keyin past darajadagi ish unumdorligi barqarorlashgan va uzoq vaqt ishlash davomida yanada yomonlashgan. Bu tizimning barqarorligini ta'minlash uchun yuklamani bir tekis taqsimlash, zaxira quvvatlarni kiritish va muntazam texnik xizmat ko'rsatish zarurligini ko'rsatgan.

Tajriba-sinov hisob-kitoblari konteyner terminalining barqarorligini ish grafiginii optimallashtirish, resurslarni boshqarishni yaxshilash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali sezilarli darajada oshirish mumkinligini tasdiqlagan. Taklif etilgan yondashuvlar konteyner tashishlarni tashkil etish barqarorligini oshirish muammolarini kompleks hal qilishni ta'minlab, ularning ishonchliligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

AnyLogic muhitida konteyner terminali ishlashining agentli diskret-hodisaviy imitatsion modelini ishlab chiqish orqali konteyner tashishning ishonchliligi va samaradorligini oshirish imkoniyati tadqiq etilgan. Taqdim etilgan model diskret-hodisaviy modellashtirish va agent yondashuvini birlashtirib, konteynerlar, transport vositalari, yuk ortish-tushirish mashinalari va saqlash uchastkalari kabi terminalning turli elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olish imkonini bergan. Model universal bo'lib, turli yuk ko'tarish qobiliyatiga ega konteynerlarga, shu jumladan o'rta va yirik tonnajli birliklarga ishlov beruvchi terminallar ishini tahlil qilish uchun moslashtirilishi mumkin.

Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatdiki, agentli diskret-hodisaviy modelini joriy etish terminal ishini samarali rejalashtirish, potensial xavflarni aniqlash va ularni minimallashtirish choralarini belgilash imkonini beradi. Ushbu model asosida terminalning ishlash parametrlarini optimallashtirish tizimning ishonchliligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga yordam beradi. Model, shuningdek konteyner terminallarini rivojlantirishni tahlil qilish va uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatini beradi, bu ayniqsa yuk oqimlarining o'sishi va ularni qayta ishlashga bo'lgan talablarning oshishi sharoitida muhimdir.

Kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashish tizimining iqtisodiy samaradorligi baholangan. Tadqiqotda konteyner terminallarida yuklarni qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish, logistika xizmatlari sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan tashishlarni barqaror tashkil etishning texnik-texnologik ta'minotiga e'tibor qaratilgan. Yetkazib berish yo'nalishlarini yaxshilash va terminal infratuzilmasidan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Taklif etilgan chora-tadbirlarning kutilayotgan umumiy iqtisodiy samarasi 781 mln. so'mni tashkil etdi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tashishlarni tashkil etishga texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish, logistika operatsiyalarini optimallashtirish va zamonaviy tashish vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish,

xizmatlar sifatini yaxshilash va konteyner tashish tizimini barqaror rivojlantirishni ta'minlaydi.

XULOSA

“Konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishning texnik-texnologik ta'minoti” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etilgan:

1. Konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishni ta'minlash sohasidagi ishlab chiqarish tajribasi tizimli tahlil qilingan va umumlashtirilgan. 2023-yilda amaldagi eksport hajmi 77 998 ta konteynerni (yigirtma futli ekvivalentda) tashkil etgan bo'lsa, import hajmi 145 475 konteynerni (yigirtma futli ekvivalentda) tashkil etgan. Logistik ta'minot zanjirlarida 1 t-km hisobida kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashish samaradorligi asoslangan.

2. Modifikatsiyalangan konteyner-platfomaning yaratish bo'yicha texnik-texnologik yechimlarni ishlab chiqish orqali kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashish tizimi takomillashtirilgan. Natijada logistik xarajatlarni 10% gacha kamaytirish orqali ushbu tashish tizimining samaradorligi isbotlangan, bu esa o'z navbatida zamonaviy transport-logistika tizimlarida mazkur platformalardan foydalanishning raqobatbardoshligi va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini oshiradi.

3. Kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashishning ratsional texnologik sxemasini izlash uchun algoritmi va dasturiy ta'minot ko'rinishidagi instrumental vosita ishlab chiqilgan. Natijada, yuk oqimlarini boshqarishda moslashuvchanlik va samaradorlikni ta'minlash orqali tashishlarni rejalashtirish jarayonini avtomatlashtirish, shuningdek, intermodal transport birligidan foydalanish orqali konteynerlarni qayta ishlash vaqtini 6 soatga qisqartirish imkoni paydo bo'ldi.

4. Intermodal transport birligining yuk ko'tarish qobiliyatini va brutto og'irligi bo'yicha nomutanosiblikni minimallashtirishni hisobga olgan holda, modifikatsiyalangan konteyner-platfoma uchun o'rta tonnajli konteynerlarni tanlash usuli ishlab chiqilgan. Natijada, platformada og'irlikni bir tekis taqsimlash orqali harakatlanuvchi tarkibning xavfsizligi va turg'unligini yaxshilash, harakat davomida tarkibning barqarorligi va manyovrligini ta'minlash uchun og'ish va notekis yuklanishlarning oldini olish, shuningdek, fitting platformasining sig'imidan foydalanish koeffitsiyentini 15% gacha oshirish imkonini bergan.

5. Modifikatsiyalangan transport masalasi asosida o'rta tonnajli konteynerlarni intermodal terminallarga birlashtirishning matematik modeli ishlab chiqilgan. Natijada, konteynerlarning turib qolish vaqtini 12% ga qisqartirishga, shuningdek, har bir stansiyaning optimal yuklanish darajasini saqlab turish uchun yetkazib berish hajmi, qayta ishlash qobiliyati va qoldiqlarni hisobga olgan holda terminallarda konteynerlarni samarali taqsimlashga erishilgan.

6. Konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishning texnik-texnologik ta'minoti uchun kichik hajmdagi yuklarni o'rta tonnajli konteynerlarda tashishni tashkil etishning yangicha yondashuvi ishlab chiqilgan. Natijada, tizimning turli xavflarga chidamliligini baholash, uning optimal ishlash parametrlarini aniqlash va samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini bergan.

7. Tadqiqot natijalari "O'zbekiston temir yo'llari" AJning "Logistika va marketing" va "Tashishlarni tashkil etish" departamentlarida joriy etilgan. Natijada, kichik hajmdagi yuklarni yetkazib berishni boshqarishga asoslangan konteyner tashuvlarni barqaror tashkil etishning texnik-texnologik ta'minotiga yangicha yondashuv asoslangan. Kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 781 mln. so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ
СТЕПЕНЕЙ PhD.15/31.08.2022.Т.73.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

АЗИМОВ ФАРРУХ КАХРАМОНОВИЧ

**ТЕХНИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОЙ
ОРГАНИЗАЦИИ КОНТЕЙНЕРНЫХ ПЕРЕВОЗОК**

**05.08.01 – Транспортные системы страны, её регионов, городов и промышленных
центров. Транспортная логистика**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2023.3.PhD/T4054.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Илесалиев Дауренбек Ихтиярович доктор технических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	Хаджимухаметова Матлуба Адилевна доктор технических наук (DSc), профессор Журабоев Камолжон Абдумуминович кандидат технических наук
Ведущая организация:	Джизакский политехнический институт

Защита диссертации состоится 4 марта 2025 г. в 15³⁰ часов на заседании Научного совета PhD.15/31.08.2022.Г.73.01 при Ташкентском государственном транспортном университете. Адрес: 100167, Ташкент, Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54, e-mail: rektorat@tstu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Ташкентском государственном транспортном университете (регистрационный номер – 225). Адрес: 100167, Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66.

Автореферат диссертации разослан 19 февраля 2025 года.
(протокол реестра №58 от 19 февраля 2025 года).



Ж.Ф. Курбанов
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Ш.М. Суюнбаев
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

М.Х. Расулов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, к.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется разработке новых технологий доставки грузов различными транспортными партиями, обеспечивая их сохранность и безопасность во время перевозки, поскольку постепенный вывод 3- и 5-тонных контейнеров из эксплуатации в железнодорожных перевозках привел к отсутствию альтернативных решений для доставки мелкопартионных грузов. На фоне роста спроса на доставку мелких партий грузов консолидированными отправлениями (LCL – Less Container Load), который, согласно прогнозам, будет увеличиваться на 4,9%¹ ежегодно при одновременном сокращении объемов полных контейнерных отправок (FCL – Full Container Load) на 2,5%², особенно актуальным становится внедрение альтернативных решений для повышения эффективности перевозок. В связи с этим акцентируется внимание на разработке инновационных технологий, направленных на оптимизацию транспортных процессов и повышение эффективности грузовых перевозок, ориентированных на снижение логистических издержек, улучшение качества услуг, обеспечение безопасности на всех этапах доставки и внедрение технико-технологических решений для координации транспортных потоков, минимизации простоя подвижного состава и ускорения логистических операций.

В ведущих странах Европейского союза, Китай, Япония, Россия и другие, активно ведутся научные исследования по разработке интеллектуальных систем для оптимизации управления перевозками, а также совершенствование технико-технологического обеспечения устойчивой организации контейнерных перевозок, направленное на повышение эффективности, улучшение координации между различными видами транспорта, снижение логистических издержек и обеспечение безопасности на всех этапах транспортировки. В этом направлении, считается предпочтительным использование достижений науки и современных научных методов для поиска рациональной технологической схемы перевозки мелкопартионных грузов в среднетоннажных контейнерах, а также применение модифицированной интермодальной единицы для снижения логистических издержек. А также, актуальными задачами считаются проведение системного анализа в области обеспечения устойчивой организации контейнерных перевозок, усовершенствование системы перевозки мелкопартионных грузов в среднетоннажных контейнерах, разработка технико-технологических решений по созданию модифицированной контейнер-платформы с учётом её грузоподъёмности, прикрепление контейнеров к интермодальным терминалам

¹ <https://www.globenewswire.com/news-release/2023/09/18/2744547/0/en/Ocean-Freight-Forwarding-Market-Size-163486-28-Billion-by-2030-at-CAGR-of-4-9-CAGR-which-is-Booming-Strong-Growth-in-the-Globe-till-2030.html>

² <https://www.bloomberg.com/news/articles/2023-02-08/maersk-sees-global-trade-contracting-as-much-as-2-5-in-2023>

и разработка модели их распределения перегрузки между группами погрузочно-разгрузочных машин.

